



1991-yildan
chiqa boshlagan

Maxsus son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

TOSHKENT VILOYAT CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI - 5 YOSHDA



Ushbu son



Dolzab mavzu

Og'zaki va yozma nutq –
komillik belgisi

5
bet



Tahlil

Hamid Olimjon lirikasida
epitetning semantik-
stilistik xususiyatlari

16
bet



Tadqiqotlar

Navoiy lirikasida obrazni
ifoda etishda ritm va
mazmun uyg'unligi

49
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODIOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garniturasini. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 2100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komillik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janrini o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish	8
ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostandart testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqollar badiiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir mushtarakligi	14
TAHLIL	
Mohizar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Ataqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umida Shermatova. Tabaqalashtirilgan adabiyot ta'limida binar ma'ruza metodi	22
O'tkur Islamov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - bebaho ma'naviy boylik!	
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi - shoirning asl dardi	
Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi	28
Iroda Xoliqulova. Hamza Hakimzoda niyoziyning dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'oy Choriyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahoroy Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kuzatishlar, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mushtarak jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajan Tadjibayev. Germenevtikada psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofatoy Muydinova. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohigul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'tishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Munglig' qalblar kuychisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'ydinov. Sud nutqi leksikasidagi o'zlashma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati	69
Xosiyat Abduqahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalanishi	70
Dildora Yorbulovala. Hamza hakimzoda niyoziyning ashulalarida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi?	73
Nodira Xolikova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - "xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyoziyning she'riyatida erk va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Qodirjon MO'YDINOV,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

SUD NUTQI LEKSIKASIDAGI O'ZLASHMA SO'ZLAR

Ma'lumki, "o'zbek tili uchun tadrijiy jihatdan leksema o'zlashtirishdagi eng qadimgi manbalar deb fors, tojik, arab tillari ko'rsatiladi". [1: 98] Rus tili va u orqali Yevropa tillaridan leksema o'zlashtirish fors-tojik, arab tillariga nisbatan ancha keyingi vaqtlarda sodir bo'la boshlagan. Bu jarayon, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmidan, ya'ni O'rta Osiyoning Chor Rossiyasi tomonidan istilo etilishidan e'tiboran boshlandi. [2: 148] Xususan, o'zbek tili sud nutqi leksikasi ham XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tili va u orqali Yevropa tillaridan leksema o'zlashtirish hisobiga boyib borgan va bugungi kunda ham bu jarayon faol davom etmoqda. Shunga ko'ra, ishonch bilan aytish mumkinki, sud nutqi leksikasida rus tili va u orqali Yevropa tillaridan kirgan o'zlashmalar katta miqdorni tashkil etadi, ayniqsa, iqtisodiyot va kompyuter texnologiyalariga oid neologizmlarning o'zlashishi juda kuchli. Ular aynan, ya'ni hech qanday o'zgarishsiz, kalkalab o'zlashtirilmoqda. Masalan:

Alibi (lotincha). Aybdor deb gumon qilinayotgan kimsaning jinoyatga aloqasi yo'qligini isbotlovchi dalil. *Shojamil Kabirovichning qotillik yuz bergan kunga to'la alibisi bor. Demak, avvalo, qotilni topish lozim.* [3: 1-t, 70]

Amnistiya. Oliy hokimiyat qarori bilan ozodlikdan mahrum qilinganlarning jazosini yumshatish yoki ularni jazodan ozod qilish. [3: 1-t, 79] *K.A.Xaitov O'zR Prezidentining 22.08.2001-yilgi "Amnistiya" farmonining 2-moddasiga ko'ra jazoni o'tash joyidan ozod qilingan (sud bayonnomasidan).*

Apellatsiya. Sud hukmidan norozi bo'lib, uning mohiyatini qayta ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan yuqori sudga shikoyat qilish. [3: 1-t, 90] *Qarordan norozi tomon 10 kun ichida jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga yoki ushbu tuman sudi raisi nomiga apellatsiya arizasini topshirishi mumkin (sud hukmidan).*

O'zbek tili sud nutqi leksikasida rus tili va u orqali Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar ichida eng faollari, tabiiyki, *sud, advokat, prokuror* terminlaridir. Mazkur so'zlar lug'atlarda quyidagicha izohlanadi.

Sud I (qadimgi rus tilidagi *sud* – ish, hukm so'zidan olingan) muayyan davlat qonuni bilan mustahkamlangan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa kategoriyadagi ishlarni ko'rib chiqish va hal etishni amalga oshiruvchi davlat organidir. Sud odatiy va favqulodda turlarga bo'linadi. Odatiy sud umumiy vakolatli va ixtisoslashgan turlarga bo'linadi. Harbiy sudlar, xo'jalik sudlari bojxona, soliq, mehnat munozaralariga oid ishlarni yuritadilar. Ayrim mamlakatlarda diniy sudlar ham mavjud. Ba'zi federativ davlatlarda sud federal va subyektiv federatsiya suverenitetiga bo'linadi.

[4: 405]

Sud I (r) 1. Fuqarolarning da'volariga oid yoki jinoiy ishlarni ko'rib, tegishli hukm chiqaruvchi davlat organi. *Oliy sud. Xalq sudi. Sud qarori. Sud hukmi. Sud organlari. Sudga bermoq.* Masalan: *O'rtoqlar, olib boringlar bularni, adolat sudiga topshiringlar! Tegishli jazosini ko'rsin* (Hamza. "Tuhmatchilar jazosi"). Shunday organ joylashgan bino, xona, joy. *Sudga bermoq. Siddiqjon o'zini qayerga qo'yishni bilmay sudga kirdi* (A.Qahhor. "Qo'shchinor"). Shunday organ xodimlari yoki sudyalari hay'ati. *Sud majlisi. O'rningizdan turinglar, sud kelayotir!* [3: 3-t, 580]

Chor Rossiyasi davrida O'rta Osiyoga kirib kelgan sudlarning ayanchli ahvolini Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanida mohirona tasvirlagan: *Mana shu vahima va tashvishlar bilan liq to'lib Toshkentga tomon qanot qoqqan depeshalar (rasmiy telegrammalar) voqeaning uchinchi kunida Toshkentdan O'lka harbiy sudining sayyor hay'atini uchirib keldi. So'roqning o'zi esa sudning yetib kelishidan ham tez o'tdi. "Munday shoshilinch sud urush maydonlarida bo'lmasa, boshqa joyda bo'lishiga aqlim yetmaydi!" deb piching qilib gapirdi til-moch...* [5: 259]

"Sud" so'ziga o'zbekcha birlashtirish natijasida yana bir qancha birikmalar paydo bo'lgan: *sud majlisi, sud zali, xo'jalik sudi, sud muhokamasi, sud hujjati, sud buyrug'i, sud tarkibi, sud majlisi bayonnomasi, sud xarajatlari, ochiq sud, yopiq sud, sud depoziti* va boshqalar.

Sudya 1. Sud organlarida sudga tushgan ishlarni ko'ruvchi va shu ishlar bo'yicha hukm chiqaruvchi lavozimli shaxs. [3: 3-t, 582]

Sudyalik. Sudya kasbi. [3: 3-t, 582]

Advokat. O'zbek tili sud nutqi leksikasida eng faol qo'llanadigan so'zlardan biri advokat terminidir, shuning uchun unga batafsil to'xtab o'tamiz. Advokat termini o'zbek tiliga rus tili orqali XIX asrning oxiri, aniqrog'i, 80-yillarida kirib keldi. Masalan, jurnalist Mo'min Qayum "O'zbekning birinchi advokati" maqolasida 1879-yilning 24-martidagi "Sadoyi Farg'ona" gazetasidan parcha keltiradi. Ushbu parchada o'zbekning birinchi advokati qo'qonlik Abdunabi Qurolboy o'g'li to'g'risida so'z yuritiladi: "Qo'qondagi advokatlar sho'basi keyingi ikki oyning ichida 151 kishina huquqiy maslahatlar berib, alarning ko'p og'ir yumushlarini hal etiluvinda sababkor bo'ldi". [6] Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida ham ushbu termin qo'llaniladi. "Bu zakunchi – ruslardan chiqqan advokat bo'lsa, abrez qora – yerlik xalqlardan chiqqan "advokat". [5: 260] Ma'lum bo'ladiki, advokat terminini XX asr boshlarida o'zbek badiiy adabiyotida ham uchratishimiz mum-

kin bo'lgan. Shunisi muhimki, Cho'lponning yuqorida qayd etilgan asarida advokat termini o'rnida *zakunchi* so'zi ham faol qo'llaniladi. Ya'ni, *zakunchi* (*zakon+chi*) yasama so'zi advokat termini bilan sinonimik munosabatga kirishib, qonunni yaxshi biluvchi shaxs ma'nosini beradi. Qiyoslang: *Sud majlisiga yarim soat qolganda, zakunchi keldi. Sud bo'ladigan binoning boqchasida tikka turib aybdor bilan gaplashdi.* [5: 263]

Hozirda o'zbek tili sud nutqi leksikasidagi faol bo'lgan "advokat" termini lug'atlarda quyidagicha izohlanadi: 1. *Advokat* (lotincha *advokatus, advoco* – taklif etaman) jismoniy yuridik shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatadi, huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar beradi, qonunchilik bo'yicha og'zaki va yozma ma'lumotlar beradi; sudlarda, davlat idoralarda, boshqa shaxslar oldida vakillik qiladi; dastlabki tekshiruvda ishtirok etadi; qonunlar bilan taqiqlanmagan boshqa yuridik xizmatlarni bajaradi. [7: 18] 2. *Advokat* – oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi. O'zRda advokat bo'lishi mumkin. [4: 11] 3. *Advokat* – (r<lotin) ayblanuvchini sudda himoya qiluvchi, sudda biror shaxsning ishini olib boruvchi, huquqiy masalalar bo'yicha maslahat beruvchi yurist, himoyachi. [3: 1-t, 38] Ko'rinadiki, "advokat" termini quyidagi yetakchi semantik komponentlar – semalardan tashkil topadi: 1. Shaxs. 2. Huquqshunos. 3. Ayblanuvchini himoya qiluvchi. 4. Huquqiy masalalar bo'yicha maslahatchi.

Advokatura 1 – advokatlar tashkiloti, kollegiyasi. [3: 1-t, 39]

Prokuror. Prokuror (fransuzcha *procureur* – lotincha *procurate* – g'amxo'rlik qilish ma'nosini bildiradi) prokuratura organlarining mas'ul, mansabdor shaxsi. U qonun asosida prokuror nazoratini amalga oshirishda Konstitutsiya, protsessual qonun hamda O'zRning "Prokuratura to'g'risida"gi (1992-yil 9-dekabr) qonuni talablarini bajarishi lozim. [4: 370]

Prokuror 1. Qonunga to'la amal qilinishi ustidan davlat nazorati olib boruvchi lavozimli kishi. *Respublika prokurori.* 2. Sud jarayonida davlat qoralovchisi.

Prokuratura leksemasi lotincha *procurate* – g'amxo'rlik qilish ma'nosini bildirib, davlat tizimidagi mavjud jinoyat ishlarini qo'zg'atuvchi, ayblovi va sud jarayonida davlat nomidan ayblovi olib borish vakolatiga ega bo'lgan organ (tizim) hisoblanadi. Ba'zi davlatlarda bu organ vakolatiga qonunlarga og'ishmay amal qilishni umumiy nazorat etish ham kiritilgan edi, ba'zi davlatlarda adliya vazirligi tizimiga kiradi (AQSh, Fransiya, Niderlandiya, Avstriya, Yaponiya, Polsha). Mamlakatda

qonunga to'la amal qilinishi usidan nazorat qilib turuvchi va sudda davlat nomidan tuzilgan aybnomani himoya qiluvchi organ.

Protokol. U lug'atlarda quyidagicha izohlanadi: Protokol (fr. *protocole*, yun. *protokollon* – manuskriptning birinchi varag'i) – 1) huquqiy faktlar qayd etilgan yozma hujjat (tergovga oid u yoki bu tergov harakati o'tkazilganligini bildiruvchi); 2) xalqaro miqyosda davlatlararo kelishuvlarni qayd etish hujjati nomi. Masalan, elchixona faoliyatini muvofiqlashtirish bitimlari to'g'risidagi protokol kabilar. [4: 371] Shuningdek: 1. Majlisda, yig'ilishda yoki so'roq va shu kabilarda aytilgan gap, qabul qilingan qaror va ular to'liq yozib olingan hujjat. *Sud majlisi protokoli.* "Kecha va kunduz" asarida sud majlisining asosiy yozma hujjati sifatida *protokol* so'zi qo'llangan: *Insof qilish kerak: protokol nihoyatda chiroqlik xat bilan yozilgan...Protokol emas, tomosha!* [5: 262] 2. Biror faktni tasdiqlash uchun tuzilgan hujjat. *Ekspertlarning protokoli.* 3. Jamoat tartibi va qonunchiligini buzganlik haqida akt. *Avtoinspeksiya protokoli.* Xalqaro bitishuvlar, kelishuvlar haqidagi hujjat. Savdo munosabatlari haqidagi protokol. [3: 3-t]

Protest. Tegishli sud va prokuratura organlarining sud hukmlari va qarorlarini qayta ko'rib chiqish haqidagi rasmiy yozma bayonoti. [3: 3-t, 314]

Protsessual; protsessual huquq. Sud yoki ma'muriy jarayonlarga oid; sud jarayoni bilan bog'liq. [3: 3-t, 317] *Shikoyatda sudlanuvchining protsessual huquqlari buzilganligi ta'kidlanadi* (Mingboev U. "Sud – fuqarolar himoyachisi").

Ekspertiza. Qiyin yoki chigal masalani yechish uchun mutaxassislar ishtirokida uyushtirilgan tekshirish. [3: 5-t, 26]

Yuridik (shaxs, hujjat, yordam). Huquqqa, huquqshunoslikka oid. [3: 5-t, 90] *Fuqarolarga, tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat yuritadi* (gazetadan).

Yurist. Yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxs; huquq sohasining rasmiy vakili. [3: 5-t, 91]

Shuningdek, o'zbek tili sud nutqi leksikasida rus va boshqa Yevropa tillaridan o'zlashgan quyidagi birliklar ishlatiladi: *Yustitsiya* (*qadimgi Rimda adolat xudosisining nomi*), *apellatsiya*, *dotatsiya*, *konstitutsiya*, *konstitutsion*, *kriminalistika*, *kriminalist*, *turma* (*tyurma*), *katorga*, *ariston* (*arestant*), *konvoy*, *konvoy* (*r-goll*) va boshqalar.

Ko'rinadiki, turkiy so'z va yuridik terminlar o'zbek tili sud nutqi leksikasining asosiy qismini tashkil etadi. Chunki keyingi yillarda o'zbek tili sud nutqi leksikasi, asosan, "o'zbekchallashtirilgan", shunga ko'ra, uni to'liq shakllangan, deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Yo'ldoshev I. O'zbek kitobchilik terminologiyasi. – Toshkent: Fan, 2005.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik. – Toshkent, 2006.
4. Yuridik ensiklopediya. Prof. U.Tadjixanov tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2001.
5. Cho'lpon A. Kecha va kunduz. – Toshkent: Sharq, 2000.
6. Mo'min Q. O'zbekning birinchi advokati // "Advokat press" gazetasi. 2005, 25–31-avgust.
7. Yuridik atamalar qomusiy lug'ati. – Toshkent, 2003.